

PAPER

NAMANGAN VILOYATINING TABIIY RESURSLARI VA LANDSHAFTLARINI EKOLOGIK-XO'JALIK HOLATINI BAHOLASH

Mashrapov Qaxramon Olimjonovich ^{1,*}, Sodiqova Shahnoza Nazirjon qizi ²,
Mirzadavlatova Latofat Zokirjon qizi²

¹NamDTU, katta o'qituvchi

²NamDTU, magistr

* mashrapov974@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada Namangan viloyati yer fondining ekologik-xo'jalik holatini baholash asosida hududda barqaror rivojlanishni ta'minlashga ko'maklashuvchi landshaftli rejalashtirish yo'nalishidagi ishlar, tabiiy resurslari, suv resurslari, landshaftlari, iqlimi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Key words: Landshaft, tabiiy resurs, kontinental, allyuvial tuproq, relyef, gips, granit, foydali qazilma, suv, o'rmonlar.

KIRISH

Namangan viloyati O'zbekistonning sharqiy qismida, Farg'ona vodiysining shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, tabiiy-geografik sharoitlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Viloyat hududi tekisliklar, tog'oldi adirlari, baland tog'lar, daryo vodiylari va allyuvial tekisliklardan iborat murakkab landshaft tizimini hosil qiladi. Ushbu hududda tabiiy resurslarning turli shakllari-suv, foydali qazilmalar, o'rmonlar, o'simlik va hayvonlar dunyosi jamlangan bo'lib, ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rin tutadi.

Hozirgi kunda prezidentimizning qarorlari va bir qator farmoyishlari orqali hududlardagi tabiiy resurslar va landshaftlarning holati qonuniy nazorat qilinmoqda. Shu jumladan 2021-yil 30-dekabrdagi PF-46-son farmoniga binoan "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida bir qator ishlar rejalashtirilgan. Mazkur hujjat doirasida navli va qimmatbaho daraxt va butalarning noqonuniy kesilishiga maratoriylar joriy etildi, kesilgan holatlar uchun jarima va kompensatsiyalar miqdori ko'tarildi. Bu farmon

Compiled on: December 16, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Environment* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

landshaftlar tarkibidagi o'simlik qoplamasini daraxtlar, butalar, yashil maydonlarni muhofaza qilish hamda ko'kalamzorlashtirish kengaytirish orqali landshaftlarning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Bundan tashqari tabiiy resurslardan "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-903-son, 02.02.2024-y.) Prezident tomonidan imzolandi. Qonun bilan tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi asosiy prinsiplar, sohani davlat tomonidan tartibga solish, tuproq unumdorligini oshirish asoslari va tartibi belgilandi. Qishloq xo'jaligi vazirligi tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi. Yer egalari Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutidan o'ziga tegishli yer uchastkasidagi tuproqning sifatini baholash to'g'risida axborot olish huquqiga ega. Yer egalari shaharsozlik faoliyatini, geologik qidiruvni va foydali qazilmalarni qazib olishni, shuningdek qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan boshqa faoliyatni amalga oshirishda tuproqning mavjud unumdor qatlamini sidirib olishi va saqlashi shart. Sidirib olingan tuproqning unumdor qatlamini qurilish tashkilotlari hokimliklar tomonidan belgilangan joylarga saqlash uchun olib chiqadi. Tuproqning unumdor qatlami sidirib olinmaganligi va saqlanmaganligi fakti aniqlanganda, yetkazilgan zararining o'rni mahalliy byudjetga qoplanadi. Mazkur pul mablag'laridan qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan sug'oriladigan yerlarni foydalanishga kiritish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun foydalaniladi. Tuproqni o'rganish Qishloq xo'jaligi, Suv xo'jaligi, Ekologiya, atrofmuhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirliklarining vakolatli tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tabiiy resurslar hamda yer resurslaridan foydalanishni tashkil etishda joyning o'ziga xos tabiiy-landshaft xususiyatlarini, ekologik-xo'jalik jihatdan zo'riqish darajasini tadqiq etishga bugungi tadqiqotlarda ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishda tadqiqot olib borgan MDH davlatlari olimlaridan A.G.Isachenko, B.I.Kochurov, V.G.Kryuchkov, A.M.Nosonov,

Kaluskov V.N. O'zbekistonlik olimlardan A.A.Abdulqosimov, L.A.Alibekov, A.Raxmatullaev, A.O'razbaev, S.B.Abbasov A.Maqsudov, A.A.Rafiqov, Yu.Shadimetov, T.Djumaev, A.N.Nigmatov, B.Kamolov, K.Boymirzayev, Yu.I.Ahmadaliyev kabilarning izlanishlari masala mohiyatini ochib berishga yordam beradi.

Landshaftshunoslikning yuzaga kelishi va rivojlanish tarixi V.V. Dokuchayevning tabiiy komponentlar aloqadorligi va ular bir butun majmua sifatida o'rganilishi kerakligi xaqidagi g'oyalari orqali dastlab rivojlanishni boshlagan. 1913-1914 yillardagi rus tabiatshunos olimlari L.S.Berg, G.F.Morozov, I.M.Krashennikov, R.I. Abolinlarning Landshaft xaqidagi fikrlari, 1920-1940 yillarda bajarilgan B.B.Polinov, I.V.Larin, A.D.Gojev, L.G.Ramenskiy, L.S.Berg kabilarning ishlari ularning landshaftshunoslik rivojlanishidagi ahamiyati ham beqiyos. Ikkinchi jaxon urushidan keyingi davrlardagi landshaftshunoslikning rivojlanishi va unda L.S.Berg, N.A.Solnsev, S.V. Kalesniklar, 1950-1970 yillardagi A.G.Isachenko, F.N.Milkov, V.S. Preobrajenskiy, N.A. Gvozdeskiy, D.L.Armand, V.B.Sochava va bosh xalqarning landshaftshunoslikka qo'shgan xissalari ham katta. 1970 yildan so'nggi landshaftshunoslikning rivojlanishi va undagi asosiy yo'nalishlar, O'zbekiston landshaftshunoslarining qo'shgan xissalari, tarixiy – genetik konsepsiya, landshaftlar va boshqa tabiiy geografik komplekslar ham uzoq tarixiy rivojlanish xosilalaridir. O'tgan asrning 20-yillaridayoq, ayniqsa B.B.Polinovning landshaft haqidagi maqolalaridan so'ng, har bir muayyan landshaft tarixiy ekanligi ayon bo'lib qolgan edi.

METODLAR

Yer fondining ekologik-xo'jalik holatini baholash asosida hududning barqaror rivojlanishini ta'minlashga ko'maklashuvchi landshaftli rejalashtirish yo'nalishidagi ishlar hozircha Namangan viloyatida olib borilmagan. Ilmiy izlanishlarga ko'ra Namangan viloyati er resurslarini ekologik-xo'jalik holatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari landshaft birliklari doirasida a) landshaftlarning tabiiy tarkibini optimallashtirish; b) antropogen yuk miqdorini me'yorlashtirish; v) nisbiy ekologik zo'riqish koeffisientini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqildi. Bu natijalarda quyidagi tumanlar bo'yicha

o'rganishlar olib borildi.

Past tog'lar hududi Pop, Kosonsoy, Yangiqo'rg'on tumanlarida uchraydi. Landshaftlarning tabiiy tarkibi nisbatan kam o'zgargan, bu yerlarda eng past o'zgarish Pop tumanida kuzatilsa-da, eng yuqori o'zgarish Kosonsoy tumaniga to'g'ri keladi. Past tog'lar landshaftlarining bajaradigan ekologik funksiyasidan kelib chiqib, bu o'zgarishlarni yanada kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Kalit tuman sifatida olingan Pop tumanida tabiiy landshaft tarkibini o'zgarish ko'rsatkichi 2.31 ni tashkil etadi. Bu joyda landshaft imkoniyatidan kelib chiqib, urbanizatsiyalashgan hududlar (1.7 %) va sug'oriladigan ekin yerlar miqdorini (8.7%) va irrigatsiya ob'ektlari ostidagi yerlar (1.3 %) holda saqlab qolgan holatda, ko'p yillik daraxtzorlar bilan band yerlar (5 %), ekologik tayanch yerlar (15%) yetkazish taklif etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Viloyat yer fondi tabiiy-landshaft tarkibini o'zgarish darajasi bashorat qilinganda, ushbu hududdagi Pop va Yangiqo'rg'on tumanlarida yer fondi tabiiy tarkibini o'zgarish darajasi yil sayin pasayib borayotgani qayd etilgan. Agar Pop tumanida bu ko'rsatkich 2020 yilda 2.31 ni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda 2.28 ni, 2030 yilga borib 2.25 ni tashkil qilishi ekstropolyatsiya usulida bashorat qilingan. Shunga yaqin ko'rsatkich Chust va Yangiqo'rg'on tumanlarida ham kuzatiladi. Biroq, mazkur landshaft mintaqasidagi Chortoq tumanida tabiiy landshaft tarkibini o'zgarish darajasi yuqoriligi bo'yicha saqlanib qolmoqda. Bu tumanda mazkur holatni kamaytirish uchun antropogen yuk miqdori past bo'lgan ekologik gomogen guruhlar hisoblangan «Ko'p yillik daraxtzorlar», «Ekologik tayanch» yerlar maydonini kengaytriish tavsiya etiladi.

Mazkur landshaft mintaqasida qishloq ho'jaligi antropogen yuk miqdori nisbatan kam ekanligi yuqoridagi tadqiqotlar natijasida aniqlandi. Biroq, mazkur hududlardan foydalanishda tog' landshaftlarining irrigasion va agrotexik bosimlarga nisbatan himoyalanganlik darajasi ham pastligini e'toborga olish zarur. Hududda sug'oriladigan va haydaladigan ekin yerlar maydonlarining kengayib ketishi tuproq eroziyasini kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Viloyatning ushbu hududida nisbiy ekologik

zo'riqish koeffisienti viloyatda eng past bo'lib, 2020 yilda 0,14 ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich boshqa landshaftlarga nisbatan past bo'lsada, biroq, tog'larning vodiyni tekislik qismini suv bilan ta'minlashdagi ekologik funksiyasini hisobga olib, bu ko'rsatkichni yanada kamaytirish maqsadga muvofiq. Istiqboldagi yer tuzish ishlarini rejalashtirishda bu hududlarda tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya, madaniy ahamiyatga molik, o'rmon, suv fondi toifalarini hamda bo'z yerlar, pichanzorlar, o'rmonzorlar, butazorlar, daryo va soylarni himoya zonalari egallagan yerlar, yaylovlar kabi yer turlari miqdorini saqlab qolish, ularni imkoniyat darajasida ko'paytirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston respublikasi prizidenti Sh.M.Mirziyoyev ning 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son farmoni
2. O'zbekiston respublikasi qonuni "Tuproqni muhofaza qilish vauning unumdorligini oshirish to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-903-son, 02.02.2024-y.)
3. N.N.Alimdjanov. Yer resurslarining landshaft ekologik holatini baholash va uni takomillashtirish yollari mavzusidagi ilmiy dissertatsiya.
4. Y.I.Axmadaliyev. Ekologiya huquqi // O'quv qo'llanma. Farg'ona.2015
5. N.N.Alimdjanov.yer resurslarining meliorativ holatini yaxshilashning ekologik geografik jihatlari // O'zMU habarlari. Toshkent 2021. Tabiiy fanlar B-178-181.
6. Alimdjanov N.N. Qishloq xo'jalik yerlaridan takroriy foylanishning ekologik jihatlari // O'zbekiston ekologiya xabarnomasi. Toshkent, № 1 (225)-2020 B-29-30.
7. Siddiqov A.U, Abdurahimov S.B, Mamajonov A. Namangan viloyati ekologiyasi, Toshkent 1996.